



O‘ZBEKISTONDA MUSTAQILLIK YILLARIDA TASVIRIY SAN’AT SOHASI RIVOJLANISHINING ASOSIY TENDENSIYALARI

ASRORBЕК HAMROYEV BAXTIYORIVICH
QARSHI DAVLAR UNIVERSITETI
TASVIRIY SAN’AT VA MUHANDISLIK
GRAFIKASI FAKULTETI 2 BOSQICH TALABASI

Annotatsiya: Ushbu maqolada mustaqillik yillarida, jumladan 90-yillarda mahobatli va landshaftli haykaltaroshlik, devoriy rangtasvir va vitraj, mozaika va me’morlik bilan uzviy bog‘liq mahobatli bezak san’atining boshqa turlari turar-joy muhiti estetikasi shakllanishiga salmoqli hissasini qo‘shilishi. Shu davrda barpo etilgan yirik inshootlar mahobatli rangtasvirchilarning faol ishtirokida bunyod bo‘lganligi bayon etilgan. Shuningdek, 1991-2001 yillarda bo‘lib o‘tgan ko‘p sonli ko‘rgazmalar mazkur davr rangtasviri uslub va kompozitsion yechimning turli tumanligini tasdiqlaydi. Respublika umummilliy ko‘rgazmalarda Toshkentlik rangtasvirchilar asosiy guruhni tashkil etib kelingaligi, so‘nggi yillarda esa rangtasvirning geografik hududi Samarqand, Andijon, Buxoro, Namangan, Nukuslar ko‘zga kuringan markazga aylanganligi zamonaviy o‘zbek san’atining yangi davrga o‘tishi uchun dastlabki qamal toshini qo‘yilish davri bo‘lganligi manbalar asosida ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: mahobatli va landshaftli haykaltaroshlik, me’morlik, tasviriy va amaliy san’at, xalq badiiy hunarmandchiligi.

O‘zbekistonda yangi ma’naviy-g‘oyaviy yo‘nalishlarining shakllanishi o‘z navbatida, zamonaviy san’atning barcha sohalariga samarali ta’sir etib, ijodiy izlanishlar doirasini kengaytirib, badiiy tafakkur rivojini yanada jadallashtirdi. Tarixiy, madaniy va



ma'naviy-ahloqiy qadriyatlarning keng qatlamlarini qayta idrok etish g'oyalari, yangilanish tamoyillari me'morlik, tasviriy va amaliy san'at sohalarida yaqqol namoyon bo'lmoqda.

90-yillarda mahobatli va landshaftli haykaltaroshlik, devoriy rangtasvir va vitraj, mozaika va me'morlik bilan uzviy bog'liq mahobatli bezak san'atining boshqa turlari turarjoy muhiti estetikasi shakllanishiga salmoqli hissasini qo'shdi. Shu davrda barpo etilgan yirik inshootlar mahobatli rangtasvirchilarning faol ishtirokida bunyod bo'ldi.

Misol tariqasida Toshkentdagi «Turkiston» saroyi (devoriy suratlar, vitraj, bezakli haykaltaroshlik, sopolli pannolar), Biznes-sentr va Interkontinental mehmonhonasi (devoriy suratlar, bezakli plastika), «Meridian» va «Sheraton» mehmonxonalari (devoriy suratlar, koshinlar, bezakli plastika), Temuriylar tarixi Davlat muzeyi (devoriy suratlar, badiiy shisha, sopol plitkalar), Toshkent shahri hokimiyati binosi va Oliy majlis binosi (devoriy suratlar, koshinlar, badiiy shisha), Olimpiya sporti muzeyi, Samarqand va Buxoro shaharlaridagi «Afrosiyob», «Buxoro» mehmonxonalari hamda poytaxt va respublikaning boshqa shaharlaridagi zamonaviy me'moriy inshootlarni keltirish mumkin.

Mazkur davrda san'atkor B.Jalolov bir qator ahamiyatli asarlarni yaratdi. Shuningdek, yosh iste'dodli musavvir A.Aliqulov boshchiligidagi ijodiy guruh yaratgan tarixiy xarakterdagi muhabbatli pannolar ham yuksak badiiyati va ijro mahorati bilan ajralib turadi. Samarqandlik musavvirlar tomonidan ham turli inshootlar uchun qiziqarli devoriy rasmlar turkumi yaratildi¹.

Mustaqillikning ilk yodgorliklaridan biri Toshkent markazidagi xiyobonda o'rnatilgan Amir Temurning otliq haykali (I.Jabborov, K.Jabborov, 1993) bo'lib, Samarqand va Shahrisabzda ham (haykaltarosh I.Jabborov, K.Jabborov, 1996) sohibqironga haykallar barpo etilgan. Xuddi shu davrda o'tmishda yashab o'tgan buyuk allomalar, davlat va din arboblari, shoirlar va musavvirlar timsolini muhrlagan qator yodgorliklar qad ko'tardi. Ular orasida o'rta asrlarda yashab o'tgan buyuk alloma al-Farg'oniya Farg'ona

¹ Абдуллаев Н. Ўзбекистон санъати тарихи. – Т., 2007. – Б.175.



(1998) va Quva (1998) shaharlarida, milliy qahramon Jaloliddin Manguberdiga Xorazmda (1999), ulug' xadisnavis imom al-Buxoriyga Samarqandda (1998), Toshkentning mustaqillik maydonida «Motamsaro Ona» majmuasi, «Shahidlar xotirasi» me'moriy yodgorliklari (2000) qad ko'tardi. Alpomishga Termizda xaykaltaroshlik majmua-kompozitsiyasi yaratildi (A.Rahma-tullayev, Q.Norxo'rozov, U.Mardiyev, T.Podosinnikov, 1998). O'zbekiston haykaltaroshlari yaratgan Belgiyaning Kortreyk shahrida Abu Ali ibn Sino haykali tantanali ravishda ochildi.

Dastgohli haykaltaroshlik ancha jonlanganligini ko'ramiz. D.Ro'ziboyev, T.Tojixojayev, I.Jabborov, R.Avakyan, M.Borodina, R.Mirtojiyevlar ijodida shakl, rang bilan bir o'rinda xaykaltaroshlikka xos bo'lmagan materiallarni samarali ravishda qo'llash ustida ijodiy tajribalar davom etmoqda.

Grafikada an'anaviy texnologiya bilan bir qatorda ifoda etishning avangard vositalarini faol izlash jadallashdi. (E.Ishoqov, V.Apuxtin, M.Kagarov, M.Sodiqov, L.Zufariy, L.Tiora).

XX asrda O'zbekistonda kuchli rangtasvir maktabi shakllandi. Ayni paytda ularning avvalgi davrlar ko'rsatish mumkin bo'lmagan o'z falsafiy qarashlarini ifoda etish imkoniyati, davrlarning aloqadorligini ko'rsatish, tarixiy xotirani parchalab bo'lmashligini isbotlashga intilishlari ko'zga tashlana boshladi. Rangtasvirning zamonaviy falsafiy plastik tizimi 80-yillarda Tamal toshi qo'yilgan qochirimli-razmli uslub rivoji jadallashdi².

90-yillar rasngtasvir san'ati o'tish davriga xos bo'lgan turli tuman uslublar ko'lamining kengligi bilan farqlanadi. Bu ko'lamda akademik realzm, dekorativizm va milliy-romantizm (ko'p hollarda miniatyura talqini ohanglarida) qiyofasiz rangtasvir, instalyatsiya yechimi tarzidagi avangardizm yonma-yon mavjuddir. Bu ko'p jihatdan ijodiy dunyoqarashning kengayishi va teranlashuvi, mualliflarning belgilangan qoliplar chegarasidan chiqishga intilishi bilan izohlanadi.

² Мустақилликнинг байрами. "Энг улуг, энг азиз". Маънавият газетаси 2016 йил август..



XX asrga kelib ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlar o‘zaro borishi bilan bog‘liq hodisa xalq ustalarining kamayishiga, hunarmandchilik buyumlarining iste‘moldan chiqishiga olib kelsada, amaliy bezak san‘ati an‘analari sanoqli ustalar ijodida o‘zining mualliflik va kasbiy mahorati darajasini saqlab qoldi.

O‘zbekiston Mustaqillikka erishgandan so‘ng an‘anaviy hunarmandchilik taqdiri tubdan o‘zgardi va xalq san‘ati rivoji tubdan o‘zgardi.

Xalq badiiy hunarmandchiligi va amaliy bezak san‘ati rivojida O‘zbekiston Respublikasi prezidenti tomonidan imzolangan «Xalq amaliy san‘ati va hunarmandchilikning kelgusidagi rivojini davlat tomonidan qo‘llay-quvvatlash tadbirlari to‘g‘risida»gi farmoni joriy etildi. Bu farmonga muvofiq, uy sharoitida yuksak saviyadagi badiiy buyumlar ishlab chiqarayotgan xalq ustalariga joylardagi hokimlarning amaliy yordamlari muhim vazifalardan biri sifatida ko‘rsatiladi. Xalq ustalarining ijtimoiy huquqiy maqomi ham sezilarli darajada o‘zgardi. Bir qator xalq ustalari Badiiy Akademiya akademigi degan sharaflı unvonga sazovor bo‘ldi. Ganch o‘ymakorligi ustalari Mahmud Usmonov va Abduraxim Umarov, kulollar Sharif Azimov, Hudayberdi Haqberdiyev (Samarqand), Sharofiddin Yusupov (Rishton), Botir Boltaboyev (Xiva), Akbar Hakimov (Toshkent), Shahnoza Mo‘minova (Toshkent), miniatyurachi rassomlar Niyozali Xolmatov va Shomahmud Muhammadjonov, Naqqosh Saidmahmud Mahmudovlar shular jumlasidandir. «O‘zbekiston Respublikasi xalq ustasi» ta‘sis etilib, unga birinchi bo‘lib. Zargar Fashiddin Dadamuxamedov sazovor bo‘ldi³.

Haykaltaroshlikda yaratilgan asarlarda yangi g‘oyaviy-mafkuraviy muhit ta‘siri, milliy hamda tarixiy mavzular ustivorligi o‘z aksini topdi va yirik badiiy yodgorlik haykallar barpo etildi.

Milliy bog‘ning eng so‘lim go‘shasidan o‘rin olgan Alisher Navoiy yodgorligida (E.Aliyev, N.Bandeladze, V.Degtyarov. 1991) esa, sharqona yaratilganligi bilan ajralib

³ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Xalq amaliy san‘ati va hunarmandchilikning kelgusidagi rivojini davlat tomonidan qo‘llay-quvvatlash tadbirlari to‘g‘risida»gi farmoni



turadi. Bronzadan yasalgan haykalda fozillik alomatlari o'z ifodasini topgan. Ramziy ma'noda barpo etilgan me'mor detal esa, shoirning mahobatli qiyofasini yanada jonlantiradi. Haykal ishlanish uslubiga ko'ra umumlashma tarzda amalga oshirilgan. YA'ni, mayda detallar faqat ko'krakdan tepa qismida, liboslar harakterida va yuz qiyofasida qo'llanilgan. Shoirning o'ng qo'lida xassa bilan tasvirlanishi dinamik xarakatni yuzaga keltiradi. Birgina ushbu detal orqali haykaltaroshlar turli ma'nolarni ochib berishga harakat qilganlar.

Toshkentning gavjum hiyoboniga o'rnatilgan Sohibqiron Amir Temurning mahobatli otliq haykali badiiyligi bilan ajralib turadi (I.Jabborov, K.Jabborov, 1993 yil). Realistik uslubda ishlangan mazkur monumentda kuchli plastik harakterlar ko'zga tashlanadi. Amir Temurning jo'shqin ichki hissiyoti otning biroz badiiylashtirilgan ko'rinishi bilan birlashib, uning kompozitsion tuzilishini mukammallashtiradi. Haykal shaklan betakror va mayda bezakli unsurlar bilan boyitilgan. Temurning bu otliq xaykali 2 metrli takkursiga o'rnatilgan bo'lib, uning «kuch adolatdadir» hikmati bitilgan. I.Jabborov mazkur asarini «Yurtga qaytish», «Pandnasihat» g'oyalari asosida yaratilganligini ta'kidlaydi. Monumentda go'yoki dushmanlarni yengib jang maydonidan poytaxtga kirib kelgan Sohibqiron fuqarolarga bundan buyon davlat xavf-xatardan xoli bo'lgani, tinchlik va farovon hayot bo'lajagini e'lon qilayotgandek tasvirlagan. Sohibqironning ruhiy holati yuzida, undagi imoda yaxshi ifodalangan.

Farg'ona shahrida o'rnatilgan yodgorlik haykal ochiq osmon ostida zinalar bilan ko'tarilgan sun'iy balandlik ustida qad rostlagan. Haykal orqasi yarimdoira ko'rinishda olti ustun va uning ustidagi uch qavat zinasimon sharafa-karniz bilan bajarilgan. Bu milliy uslubdagi me'moriy detallar yodgorlikning salobatini oshiradi. Quvadagi yodgorlik biroz vazmin, o'ychan bo'lib, romondo uslubida bajarilgan.

Xorazmda Jaloliddin Manguberdi haykali "tog'ning ustida turgan burgutday turadi". Chingizxondek yovuz bosqinchiga qarshi kurashda mislsiz matonat, jasorat namunalarini ko'rsatgan Xorazmshohlar sulolasidan Jaloliddin Manguberdingina shunday mard



qiyofasini I.Jabborov tomonidan yaratildi (1998). R.Mirtojiyev tomonidan esa, “Zahiriddin Muhammad Bobur” (1993y, Andijon shahriga o‘rnatilgan), “Abdulla Qodiriy” (1994 y., Toshkent shahriga o‘rnatilgan), “CHo‘lpon” (1997 y., Andijon shahriga o‘rnatilgan), “Ona” (1999 y., Jizzax shahriga o‘rnatilgan) kabi qator badiiy nuqtai nazardan yirik yodgorliklarni yaratgan⁴.

Termiz shahrida epik qahramon Alpomishning ramziy haykali bunyod etildi. Haykaltaroshlikning mazkur kompozitsion majmui, ikki yondagi bo‘rtma tasvirlarda Alpomishning yori Barchin va o‘g‘li Yodgor siymolari Boysun elining tarixiy manzarasi asosida ifodalangan. Alpomishning mahobatli qiyofasini ochib berish uchun turli unsurlardan unumli foydalanilgan. Chap qo‘lidagi kamoni ozodlik va erklikning timsoli bo‘lsa, o‘ng qo‘liga qo‘nim topgan qush maktub eltuvchi vosita sifatida ifodalangan. Bu majmua A.Rahmatullayev, Q.Norxo‘rozov, U.Mardiyev, P.Podosin-nikov kabi haykaltaroshlar tomonidan bunyod etildi.

Dastgohni haykaltaroshlikda T.Tojixo‘jayeav Navoiy, Ulug‘bek, Furqat, Mashrab kabi ruhiy va ma’naviy jihatdan o‘ta murakkab shaxslar qiyofasini, ularning ichki hislarini, yuz mimikalari va qarashlari orqali ko‘rsatishga harakat qiladi. Uning tomonidan «Kurash», «Raqs», «Chavandoz» kabi kichik xajmdagi plas-tik ishlari portretlar san’ati realistik bo‘lmay, balki, romantik, impression va ekspression oqimga mansubdir. «Baxt qo‘shi» asari esa «ilon izi» toshidan ishlangan bo‘lib, qushning qifasida g‘ayrioddiy, shu bilan, erksevar xalqning asrlar davomida ichki tuyg‘ularida saqlanib kelayotgan hissiyotlari o‘z ifodasini topgan⁵.

D.Ro‘ziboyevning kompozitsiyalarini kuzatar ekanmiz haykaltaroshlik bilan rangtasvirning o‘zaro uyg‘unligiga guvoh bo‘lamiz. Uning keyingi yillarda yaratilgan «Jaz ijrosiga hamohang badihalar» (1998) turkumiga yangi badiiy jarayoni o‘zida to‘laqonli

⁴ Абдуллаев Н.У. Пейзажная живопись Ўзбекистана. Г.А.Пугаченкова, Л.И.Ремпель, История искусств Ўзбекистана с древнейших времен до середины. – Искусство Советского Ўзбекистана. – М., 1976

⁵ Абдуллаев Н. Ўзбекистон санъати тарихи. – Т., 2007. – Б.189.



ifodalaydi. Bundan tashqari «Navroʻz malikasi» bahoriy his tuygʻular bilan bayramona kayfiyatda ifodalangan. Haykaltarosh bu asari orqali tarixga murojaat etib, ajdodlarimizning tipik liboslaridan unumli foydalanish orqali obrazni zamon ruhiga moslashtiradi.

J.Quttimurodov esa oʻz ijodida qoraqalpoq ohanglarini haykaltaroshlik asarlariga koʻchirgan. Uning ijodiga mansub «Ayol», «Oʻtirgan sohibjamol», «Amudaryo», «Oqqush», «Qizil toj taqqan qiz», «Shohli Iskandar» asarlarida haykal tabiatini idrok etish mumkin. J.Quttimurodov tomonidan yaratilgan asarlarda ertaklar, gʻaroyibotlar olami namoyon boʻladi. Haykaltaroshning «Avesto» turkumidagi asarlari ham alohida eʼtiborga molik.

R.Mirtojiyevning dastgohli haykaltaroshlik sohasidagi tajriba va koʻnikmalari yetarli darajada ekanligini u yaratgan «Bobur-Vatan sogʻinchi», «Shayh Bobur va Temur Malik» (1990 y), «Yomgʻir» (1995 y.), «Behzod» (2000) kabi asarlarida koʻrish mumkin.

Umuman olganda, 1990 – yillar haykaltaroshligida, asosan, tarixiy siymolar gavdalandi va ularning soni koʻpayishi bora-bora uslub jihatlarining yangilanishi bilan bir qator asarlarda koʻzga tashlanadi. Shuning bilan birgalikda, zamonaviy mavzular, qahramonlar obrazlariga nisbatan kam ahamiyat berildi⁶.

Rangtasvirda badiiy jarayon shiddatli va serharakat kechdi. 1991-2001 yillarda boʻlib oʻtgan koʻp sonli koʻrgazmalar mazkur davr rangtasviri uslub va kompozitsion yechimning turli tumanligini tasdiqlaydi. Respublika umummilliy koʻrgazmalarda Toshkentlik rangtasvirchilar asosiy guruhni tashkil etib kelmoqda, soʻnggi yillarda esa rangtasvirning geografik hududi Samarqand, Andijon, Buxoro, Namangan, Nukuslar koʻzga kuringan markazga aylandilar. Samarqandda eng yorqin va isteʼdodli rassom A.Isayev hisoblanadi. Namanganda esa I.Valixoʻjayev, P. Jalilov, M.Ashurmatovlarni koʻrsatish mumkin. Buxoroda M.Abdullayev, B.Salomov, Z.Saidjonovlari alohida koʻrsatish mumkin.

⁶ Мустақилликнинг байрами. «Энг улуғ, энг азиз». Маънавият газетаси 2016й 08.



Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, tasviriy san'at, xususan haykaltaroshlik jamiyat ravnaqida, xalqaro madaniy aloqalar mustahkamlanishida, milliy qadriyatlarning namoyon bo'lishida naqadar ahamiyatli ekanligidan dalolat beradi. Mazkur sohalarning rivoji uchun esa, aynan tasviriy san'atga katta e'tibor qaratilishi kerak ekanligiga guvoh bo'ldik.

FOYDALANGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Абдуллаев Н. Ўзбекистон санъати тарихи. – Т., 2007. – Б.175.
2. Абдуллаев Н.У. Пейзажная живопись Ўзбекистана. Г.А.Пугаченкова, Л.И.Ремпель, История искусств Ўзбекистана с древнейших времен до середины. – Искусство Советского Ўзбекистана. – М., 1976
3. Мустақилликнинг байрами.“Энг улуғ, энг азиз”. Маънавият газетаси 2016 йил август
4. О'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Xalq amaliy san'ati va hunarmandchilikning kelgusidagi rivojini davlat tomonidan qo'llay-quvvatlash tadbirlari to'g'risida»gi farmoni.